

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/5 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ
САМАРКАНДСКОГО СОГДА 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрам о'g'li*
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ46-51
- Матажонов Раҳимжон Акратович*
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF
UZBEKISTAN 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH
USULLARI VA AFZALLIKLARI 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TASHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ	130-137

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDI O'RGANISH USULLARI	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI	214-219

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ	254-258

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI	272-277

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK - USLUBIJ TA'MINOTI	316-322

10.00.00- Филология фанлари

Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha Tayanch doktoranti,
E-mail :ismonovayorqinoy@gmail.com

ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" maqolasi tahlil qilinadi. Undagi obrazlar, ayniqsa hikoyachi bola Kichkintoy Muzaffar obrazining asardagi ahamiyati, o'rni, vazifasi o'rganiladi. Romanda muallifning kuzatuvchanlik mahoratini ko'rishimiz mumkin. Obrazni yoritishda bolalarga xos bo'lgan soddalik, ishonuvchanlik va beg'uborlik kabi hislatlarga tayangan, xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangan.

Kalit so'zlar: roman, hikoyachi, qahramon, xarakter, obraz, badiiy asar, xronotop, epopeya, kuzatuvchanlik mahorati.

Ismanova Yorkinoy Abdumutalib kizi

Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi,
Doctoral student of Tayanch majoring in Uzbek literature,

IN THE NOVEL THE NARRATOR IS A CHILD

Abstract. In this article, the defining function of terms is aimed at classifying terms by author, by sphere of use, in accordance with their semantic structure, by motivational/non-motivational classification, by belonging to categories of words. In such a system, the primacy of common properties is associated not only with consistency, but also with typing. Such stratification -stratification is not absolute, null terms can overlap in their meaning (completely or partially), interpenetrate with each other, form synonymous parallels and are components of composite terms.

Keywords: Internal and external linguistic features, Alice in Wonderland syndrome, Parkinson's disease, high-frequency and low-frequency terms, color blindness, anemia.

Исманова Йоркиной Абдумуталиб кизи

Ташкентский государственный университет узбекского
языка и литературы имени Алишера Навои,
Докторант Таянча по специальности «Узбекская литература»,

В РОМАНЕ РАССКАЗЧИК — РЕБЕНОК

Аннотация. В данной статье определяющая функция терминов направлена на классификацию терминов по автору, по сфере употребления, в соответствии с их семантической структурой, по мотивационной/не мотивационной классификации, по принадлежности к категориям слов. В такой системе примат общих свойств связан не только с системностью, но и с типизацией. Такая стратификация - расслоение не является абсолютным, нулевые термины могут по своему значению (полностью или частично) пересекаться, взаимопроникать друг с другом, образовывать синонимичные параллели и являются компонентами составных терминов.

Опорные понятия: Внутренние и внешние лингвистические особенности, синдром Алиса стране чудес, болезнь Паркинсона, высокочастотные и низкочастотные термины, дальтонизм, анемия.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N28>

Kirish. “Ikki eshik orasi” o‘zbekning chin xarakteri va matonatini ko‘rsatgan romandir. Asar qahramonlarining samimiy va soddadilligi, sabr-bardoshi, birdamligi, kamtar va mehribonligi, mehmondo‘st va mehnatkashligini ko‘rib ko‘nglingizda ularga nisbatan iliqlik uyg‘onadi. Ularning qayg‘usini o‘zingiznikidek his qilasz. Balki bunga sabab roman voqealarining reallikka yaqinligidir. Har holda yozuvchi asar haqida shunday deydi: *“Bu kitobdagi ko‘p odamlarni o‘zim ko‘rganman. Ko‘plari bilan gaplashganman. Ba‘zilarining o‘zi bilan, ba‘zilarining... ruhi bilan... Ba‘zilari nimani gapirgan bo‘lsa, shuni qog‘ozga tushirdim. Ba‘zilari nima gapirganini emas, nima o‘ylaganini yozishga majbur bo‘ldim...”*.

Roman Muzaffar, “Qora amma”, Robiya, Ra‘no, Umar zakunchi, Kimsan, Munavvar, Olimjon kabi turli xarakter va toifadagi obrazlar tilidan hikoyalar tarzida berilgan. Asarda Kichkintoy Muzaffar hikoyasi va bolakay ulg‘aygach, Muzaffar Shomurodov hikoyasiga aylanib borishi, voqealar rivoji hech qanday uzilishlarsiz, aniq va tushunarli qilib tasvirlangani bu yozuvchi mahorati va kuzatuvchanligini ko‘rsatib bergan. Roman voqealari kichik bir qishloq odamlarining urush arafasi, urush yillari va undan keyingi davrdagi azob-u tashvishlarda o‘tgan hayotini hikoya qiladi.

“...har qanday adabiy janr fazilatini, syujeti va obrazlari mohiyatini xronotop tushunchasiz to‘la anglay olmaymiz. Xronotop so‘zma-so‘z tarjimada zamon, makon degan ma‘noni bildiradi. Badiiy asar dunyosida voqelikning ma‘kon-zamon nuqtai nazaridan uyg‘un kechishini ta‘minlaydi. Ammo u shunchaki texnik makon-zamon emas. U yozuvchi tomonidan jonlantirilgan, asarning barcha komponentlari bilan uyg‘un harakatga yo‘naltirilgan muhim, qoliplovchi badiiy fenomendir. Har qanday mukammallik da‘vo qiladigan asarda ham xronotop tizimi noqis bo‘lsa, buni o‘quvchi his etadi. Mukammal asar sifatida qabul qila olmaydi”. [1] O‘tkir Hoshimov romanida esa mana shu tizim mukammal, ayni paytda, o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan.

“Bilamizki, qismat bu – mahkumiyat!” [2] Urush esa o‘z nomi bilan urush. U hech kimni ayamaydi. “Ikki eshik orasi” romani qahramonlarining qismatiga urush deb atalgan dahshat yozildi. Uning azobi boshlanishdan avval qalbni yaraladi va tugab bitsada yillar davomida o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan insonlarning ich-etini tirnayverdi. Buni biz “qora amma”ning umrining oxirigacha ko‘chaga ko‘z tikib, urushga ketgan farzandini intizor kutishida, garchi oila qurib, bola chaqali bo‘lsada, ahd-u paymon qilgan yoriga bo‘lgan muhabbati qalbining ich-ichida hamon yashab kelayotgan Robiyaning ko‘z yoshlarida, “kingadur” yaxshilik qilsayu, oqibatda yakkayu-yolg‘iz farzandidan ayrilgan Bashoratning dod-faryodida, go‘dakligidayoq ona mehridan “mahrum” bo‘lgan va dadasini ham ona ham ota deb bilgan Muzaffarning tuyg‘ularida ko‘rishimiz mumkin. Asardagi har bir qahramon, hatto eng kichik obrazda ham urushdan chekilgan aziyat juda ta‘sirli qilib ko‘rsatilgan.

Romanning “*Mehr bilan Qahr – orasi bir qadam*” deb nomlangan bobida urushning chinakam “dahshat”i aks ettirilgan. “*Lovullab yonayotgan uylar gulxanida bolakayning azobdan qiyyshayib ketgan chehrasi aniq ko‘rinardi. Ikki yuzi, qosh-kipriklari kuyib, qorayib ketgan, ko‘zlari vahima bilan bir nuqtaga baqrayib qotib qolgan, faqat lablari, jajji lablari yarim ochiq; hamon “a-a-a” deb chinqirayotganga o‘xshar, kemshik tishlari orasidan g‘archcha tishlab olgan tilining uchi*

chiqib turardi...". Bu jummalarni o'qigan har bir kitobxonning eti jimirlamay qolmaydi, ko'zlari esa albatta, jiqqa namlanadi. Urushga nafrati ortadi.

Urush har qanday odamni shafqatsiz – diyonatsiz qiladi, deydi adib asar qahramoni tilidan: *"Vaqti kelib, to'ylar qilsak-da, dushman bostirib kelib, bizning bolalarni yondirib yuborsa! Qanaqa bo'ladi! Tiriklayin kabob bo'lgan mana shu begunoh bolani ko'rgan odam dushmandan qasos olmasa, gunohga botmaydimi? Shu bolani ko'rgan odam dushmanga shafqat qiladimi? Bilmadim, balki, shafqatsiz odam – diyonatsiz bo'lar. Lekin diyonatli bo'lish uchun ham shafqatsiz bo'lish kerak. Men shunga ishonдим. Urush meni shunga majbur qildi, Robiya!"*. Bu esa urush tufayli qordek beg'ubor, vijdonli va sof qalbi g'azabga, nafrat va qasos o'tiga to'lgan o'zbek o'g'lonining ichki fig'onidir.

Yaqin tariximizning uch davrini qamrab olgan bu roman o'ziga xos epopeya bo'ldi, deydi yozuvchi Asror Samad. Zero, Said Ahmad yozganidek, bu roman *"o'zbek adabiyoti xazinasida o'z o'rnini topgan asarlardan biri bo'lib qoldi. Bu asar xalqlar boshiga kulfat solgan Ikkinchi jahon urushi to'g'risida yozilgan achchiq alamlı yilnomadir"*.

Romanda ismlarga qo'shib aytiladigan ko'plab "laqab"larga duch kelamiz. Masalan, "tuya amaki", "qora amma", "giroy", Umar zakunchi, Komil tabib, Oqsoqol, Duma pakana, ma'lim (muallim), Rahim "sassiq", kallaxum, "Kobra", Rashid abzi, Ilhom choyxonachi, Soli so'poq, Ilhom cho'tir, Ismoil melisa kabilar. Bunday nomlanishlar har bir qahramonning tashqi ko'rinishi, kasb kori yoki xarakteridan kelib chiqib berilgan. Zero, adabiyotshunos olim Uzoq Jo'raqulov aytganidek: *"Romandagi portret va xarakterlar bilan uyg'un aks etishi lozim bo'lgan yana bir masala – qahramonlar ismidir. Chunki Yevropa, ayniqsa rus romanchiligi an'anasiga ko'ra, qahramonning ismi uning qiyofasi, xarakteri va harakatlari bilan uyg'un bo'lishi kerak!"*.

Kichkintoy Muzaffar ammasiga qarata "qora amma" deya murojaat qilganida, dadasi uni asta turtib shunday deydi: *"-Necha marta aytganman: "qora amma" emas, amma degin, tentak!"* "Qora amma" xafa bo'lmaydi, ukasini koyib beradi: *"- Seni ishing nima! – Qorani qora deydi-da! Qoraman! To'g'rimi? Yur, bolam!"*. Samimiylık bilan aytilgan bu gaplarni o'zbeklarcha beg'ubor va xushfe'l xarakterdan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Muallif asarda har bir obrazga alohida e'tibor bilan yondashgan. Ularning tashqi ko'rinishi, xarakteri, ichki kechinmalarini tasvirlashda individuallıkdan foydalangan. Zero, *san'atkor umumlashmaga ham obrazning muayyan individual xususiyatlarini bo'rtiq, ya'ni ta'kidlabroq, ko'zga tashlanadigan qilib tasvirlash orqali erishadi.*[3] Masalan, *"o'zining yuzi lagandek. Razm solib qarasangiz, oppoq chinni laganning ikki chetiga ikkita piyola to'nkarib qo'yilganga o'xshaydi"*, *"Parcha xolaning do'rillagan ovozidan tokchadagi barkashlar zirillab ketganday bo'ldi"*.

U xoh eng kichik obraz bo'lsin yoki asosiy qahramon, romanda har birining o'z o'rnı va o'ziga yuklatilgan vazifasi bor. Masalan, olomon do'pposlashiga ham qaramay burnidan oqqan qonga belangan nonni changallab yutayotgan "o'g'ri" bolakayni yoki doim qo'pol va erkaklarga xos xarakteri bilan ajralib turgan Parchani olaylik. Bu obrazlar asardan olib tashlansa, butun bir romanga "gard" yuqqanday bo'ladi, albatta.

Shuningdek, romanda bola obrazini yoritishda muallifning kuzatuvchanlik mahoratini ko'rishimiz mumkin. Obrazni yoritishda bolalarga xos bo'lgan soddalik, ishonuvchanlik va beg'uborlik kabi xislatlarga tayangan. Masalan, choyxonadagi kishilar kichkintoy Muzaffarni erkalatib "giroy" deb chaqirishsa, *"Mayli, giroy bo'lsam bo'pman-da"* deb o'zicha bir ikki marta "giroylik" qilib dadasidan dakki eshitishi, ammasi: *"-Mushukka ozor berma, Muzaffar! Payg'ambar orqasini silagan jonivor-a!"* deyishiga qaramay, *"Hozir ko'ramiz-da! Payg'ambar silagan bo'lsa orqasi bilan tusharmikin, oyog'i bilanmi?"* deya, sinab ko'rishı, qo'shni Lazakat xolaning burnini

“tovuqning tumshug‘i”ga o‘xshatishi, ammasining xafa bo‘lishini xayoliga ham keltirmay unga “qora amma” deb murojaat qilishi va uni tasvirlashda ham – *“ammam xuddi koptokka o‘xshaydi. Kichkina, dum-dumaloq. Tag‘in yozdayam qora nimcha kiyib yuradi”* deya, bolalarcha tog‘riso‘zlik bilan yondashuvda ko‘rishimiz mumkin.

Adib besh yoshli bolakayning dunyoqarashi, atrofdagilar bilan munosabatini chinakam bola nigohi bilan ishonarli qilib tasvirlab bergan. *“Qayrag‘ochning g‘adir-budir tanasiga suyanib o‘tirarkanman, muttasil chirqillayotgan chumchuqlar qulog‘imni batang qilib yubordi. Boshimni ko‘tarib qaragam, sadaqayrag‘och atrofida g‘uj-g‘uj chumchuq. Biri uchadi, biri qo‘nadi. Vo‘y inlarining ko‘pligini! Bittasi judayam pasda ekan. Do‘ppidek inda uchta bolasining boshi ko‘rinyapti. Katta chumchuq uchib kelishi bilan uchchala bolasi sap-sariq tumshug‘ini katta ochib, baravar chirqillaydi. Ammo dadasi hech adashmaydi. Hammasiga galma-galdan ovqat beradi. Iye, dadasi ikkita ekan-ku! Bittasi uchib ketishi bilan, ikkinchisi kelyapti, bolalariga navbat bilan ovqat ulashishyapti. Bundan chiqdi, bittasi – dadasi, ikkinchisi – ammasi!”*. Go‘dakligidan ona mehridan mosuvo bo‘lgan va esini tanibdiki, atrofidagi yaqinlari sifatida dadasi va ammasini bilgan Muzaffar qushlar “oila”sida ham o‘z oilasini ko‘radi. Polaponlariga g‘amxo‘rlik qilayotgan qushlarni ularning ota-onasi emas, balki dadasi va ammasi deb biladi. Bunday qarash va fikr yuritish esa albatta, murg‘ak bolaning samimiyatga to‘la qalbiga xosdir.

Ko‘pincha kattalar bolalarni erkalatib ularga nisbatan hazil-mutoyiba bilan munosabatda bo‘lishadi. Bolalar esa bu holatni to‘g‘ri va jiddiy qabul qilishadi. Mana shunday vaziyat romanda ham o‘rin olgan: - *“Tuya” amakini Abduvalidan ham yomon ko‘raman. Sochni ustarada oladi. Avval boshingizni rosa ishqalaydi. Keyin sovun suradi-da, “boshingni eg”, deb turaveradi-turaveradi.. Bo‘yning og‘rib ketgani bilan ishi yo‘q. Bo‘yning og‘riganiyam mayli, burningdan tortaverib charchaysan. Nuqul boshingni egaverganingdan keyin burun oqadi-da! “Tuya” amaki bo‘lsa, so‘kadi: “Nima balo, giroy, burningda bulog‘ing bormi, qaynab chiqyaptimi?” deydi. Birpas shunaqa o‘tirsin, o‘ziniki qaynab chiqmasmikin?! Yoki - Qani, giroy qanddan oling! – deydi “Tuya” amaki iljayib. – Bulbulingiz o‘sib qoldimi? Qachon tumshug‘idan jichcha kesib sayratma qilamiz endi?”*.

Adib asarda: *Dukur-dukur ot keldi,*

Ot boshida xat keldi.

Xatini o‘qib ko‘rsam,

Voy-voy bilan dod keldi..

Jon bolam – jonim bolam,

Ollohga topshirdim sani,

Ohimga Ollo yetmadi,

Tuproqa topshirdim sani.

Ayda molay bozarg‘a

Pirashkilar osharg‘a...

Tog‘da kiyik kishnaydi ot bo‘ldim deb yor-yor.

Uyda kelin yig‘laydi, yot bo‘ldim deb yor-yor.

Dukur-dukur ot keldi-yu, ot keldi,

Chiqib qarang kim keldi-yu, kim keldi?...

Alla, bolam, alla-yo alla!

Shirin qo‘zim, alla-yo alla!

“Osmondagi qushni bejaydigan chevar”, “katta oxurdan yem yemoq”, “Mehnatdan kelsa boylik, turmushing ham chiroylik!” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, maqollar, qo‘shiqlar, alla, yor-yor va aytimlardan foydalangan. Shuningdek, romanda bolalar tomonidan o‘ynalgan yong‘oq

o'yini, bekinmachoq, soqqa o'yini, sopalak singasi xalq o'yinlariga ham duch kelamiz. Bu esa asarni yanada xalq qalbiga yaqin, o'qishli va jozibali bo'lishiga sabab bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani o'zbek xalqining jасorati, metindek qattiq matonati, birdamligi, sabr-bardoshi, urush tufayli chekkan azob-uqubatlari aks ettirilgan chinakam buyuk asardir. Yozuvchi asarni "Ikki eshik orasi" ya'ni Hayot va O'lim deb nomlar ekan, insonlarni shu ikki eshik orasidagi hayotini urush va qiyinchiliklarda, azob va tashvishlarda emas, balki osoyishta, ahil va birdam bo'lib o'tkazishga chorlaydi. Zero, biz insonlarga berilgan qisqagina umrni mazmunli o'tkazishimiz, hayotimiz esa kelgusi avlod uchun ibrat bo'lmog'i shart va muhimdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Jo'raqulov U. O'zbek adabiy tanqidi. Mif va ijodiy jarayon. – Toshkent: "Turon-Iqbol", 2011.
2. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. Zamon. Janr. Xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: "Navoiy universiteti", -2018. –B.92.
4. Achilova E. O'tkir Hoshimov asarlarida badiiypsixologizm muammosi. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali,2021.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: O'zbekiston, -2002.
6. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. –Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", -2019.
7. O'tkir Hoshimov. Sakkizinchi mo'jiza. Toshkent.
8. O'zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", -2006.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: "Navoiy universiteti", -2018.
10. Said Ahmad. "Ikki eshik orasi" romani haqida.
11. Sharofiddinov O. "Ikki eshik orasi" romani haqida.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).